HAMID OLIMJON DOSTONLARIDA SO‘ZLARNING SHAKL VA MA’NO MUNOSABATIGA KO‘RA TURLARI

Yodgorova Shahnoza Faxriddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hamid Olimjon dostonlarida qo‘llangan so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari tahlil qilinadi. Omonim, antonim, sinonim paronimlar orqali tilimizning nihoyatda boyligi va shu bilan bir qatorda borliqni va undagi narsa-predmetlarni ta’riflash va o‘z lisoniy manzarasida aks ettirish xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Ularda ijodkorning voqelikni qay darajada idrok qilishi, voqelikka munosabati, tafakkuri, til birliklarini qo‘llash mahorati kabilar o‘z ifodasini topadi.

Kalit so‘zlar: antonim, sinonim, paronim, omonim, tazod, tuyuq, tajnis

O‘zbek adabiyotining yorqin, zabardast va iste’dodli shoirlaridan biri, dramaturg, olim va jamoat arbobi Hamid Olimjon hammamizga ma’lum va mashhur baxt va shodlik kuychisi sifatida tanilgan. Bugungi kunda nafaqat Hamid Olimjon, balki butun ijodkorlar ijodini chuqur o‘rganish, ular qo‘llagan har bir so‘zning bosh lug‘aviy va ko‘chma, ya’ni matniy ma’nolarini aniqlash, grammatik, leksik arxaiklashishi, davrlar o‘tishi bilan ma’noning kengayishi va torayishi, yangi ma’no kasb etishi, o‘ziga xos ijodkor ichki tuyg‘ularini tushunish kabi til bilimi bilan bog‘liq masalalarni ilmiy asoslash muhim tadqiqotlardan biridir. O‘zbek she’riyatida jo‘shqin lirizmga asoslangan she’riyat maktabini yaratgan shoir, dramaturg, olim Hamid Olimjonning badiiyatga yo‘g‘rilgan, hayotni va undagi go‘zallikni tarannum etgan betakror ijodi kishini hayratga soladi [1,15-bet]. Buyuk shoirning she’rlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli bo‘lgan so‘z va atamalar ijodkor uslubiga xos o‘z badiiy ifodasini topgan. Bu esa, albatta, so‘z san’atkorining dunyoqarashi bilan bog‘liq kuzatuvchanlik, turli sohalarga bo‘lgan qiziquvchanlik, mulohazakorligidan darak beradi [5,21-bet]. Shoir nazmiy shaklda ifodalangan asarlarida badiiy tasvir vositalaridan, shuningdek, badiiy san’atlardan ustamonlik bilan foydalangan. Hammamizga ma’lumki, tilimizdagi so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga kora turlari, ya’ni omonim, sinonim, paronim, antonimlardan foydalanish badiiy asarning qimmatini oshiradi. Badiyatda antonimlardan tazod san’ati, omonimlardan tajnis sanati vositasida tuyuq janrini hosil qilish mumkin [3,177-bet]. Tilimizdagi so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan shoir Hamid Olimjon ham mahorat bilan foydalangan. Jumladan:

*U goyo bir buyuk **tog‘***
*Yuzida ming yillik **dog‘***
Chunki zindon tagiga
Tashlangan bizning Oygul. (“Oygul bilan Baxtiyor”) [2, 109-bet]

Ushbu parchada **tog‘ – dog‘** so‘zlari misolida talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi o‘xshash, leksik ma’nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqinlik asosida yuzaga kelgan paronimlik munosabatini korishimiz mumkin.

Eshit, qizim Parizod,
*Chiqaribsan yomon **ot**.*
Sening bagring tosh emish,
Kozlaring beyosh emish,
Aslo sevmas emishsan,
Erga chiqmam, demishsan
*Shartim shuki, **ot** bilan,*
Goyoki qanot bilan

Shu chinorga chiqqanga,
Chiqib uni yiqqanga
So‘zsiz xotin bolaman,
Go‘zal otin bolaman. (Semurg‘) [2,159-bet]

Keltirilgan ushbu she’riy parchada esa omonimiya hodisasini ko‘rishimiz mumkin: **ot – “shaxs nomi”** ma’nosida bo‘lsa, **ot – “hayvon turi”** ma’nosida kelgan. Omonimlar - umumiy ma’no unsurlariga ega bo‘lmagan, tasavvuriy bog‘lanmagan, lekin bir xil yozilib, bir xil aytiladigan so‘zlar, ular orasida semantik aloqa bo‘lmaydi. Ana shunday so‘zlarning tilda mavjud bo‘lishi va shunga bog‘liq hodisalar omonimiya deyiladi [4, 139-bet].

Tilda zid ma’noli so‘zlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta’sirchanligini ta’minlashda qulay vositalardan biridir. Sharq adabiyotida juda qadim zamonlardan buyon tildagi bu ifoda imkoniyatidan keng foydalanib kelingan. Shoir uchun juda zarur bo‘lgan san’atlardan biri tazoddir. Bu san’at yana mutobaqa, tiboq, tatbiq, muttazod, ittizod va takofu deb ham ataladi.

O‘zi balo tog‘ining
Va ofat bulog‘ining
Boshida o‘ltirarmish,
***Kun**-u **tun**-u yoz ham qish.*
Bunyod salqin soyada,
Bunday zo‘r himoyada,
*Yetti **tunni** uxladi,*
*Yetti **kunni** uxladi.*
*Qumlar ko‘chib **erta-kech**,*
Vatanidan ajraldi,
Sahro giyohsiz qoldi.
Qurtlar sarson bo‘ldilar,
Uchgan qushlar o‘ldilar (“Semurg‘ ”) [2,120-bet].
*Jambil edi bir **bo‘ston**,*
*Qilding uni **go‘riston**.*
Senday qonxo‘r zolimdan
Qolmasin deb biror zot,
Bosh ko‘tardik, zulmdan (“Oygul bilan Baxtiyor”) [2,107-bet].

Bu she’riy parchada esa antonimlar, ya’ni **kun-u tun, erta-kech, bo‘ston-go‘riston** kabi so‘zlarni olishimiz mumkin. Antonimlar zid manoli til birliklari, ya’ni ma’nosi bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar antonim deyiladi. Antonimik juft hosil bo‘lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha ma’no jihatdan o‘zaro qarama-qarshi bo‘lishi kerak.

Ma’nodosh so‘zlar tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos vositadir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yana-da to‘liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o‘rganilgan hodisadir. O‘zbek tili ma’nodosh so‘zlarga juda boy. Yozuvchilar tilimizdagi ma’nodosh so‘zlar ichidan tasvir maqsadiga eng munosibini topib ular orqali qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha ifodalashga harakat qiladilar [6,127-bet]. Badiiy matndagi ma’nodosh so‘zlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e’tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma’nodosh so‘zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbul birini tanlashi bo‘lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma’nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg‘un holda qo‘llashi masalasidir.

Xonni o‘ldirmoq uchun,

Ko‘tarib elning kuchin
Kezardilar isyonda,
*Ming **alam**, ming **fig‘onda*** (“Oygul bilan Baxtiyor”) [2,107-bet].

Keltirilgan she’riy parchada sinonimlar, ya’ni alam, fig‘on kabi so‘zlarni olishimiz mumkin. Sinonimlar - bir umumiy ma’noga ega bo‘lish hodisasi sinonimiya deyiladi. Bu hodisa qanday til birliklariga xosligiga qarab, lug‘aviy sinonimiya, frazeologik sinonimiya, sintaktik sinonimiya kabilarga bo‘linadi. Biz ulardan mosini, to‘g‘ri keladiganini tanlay bilishimiz zarur. Paronimlarda ham xuddi shunday. Ulardan nutqimizda foydalanish jarayonida katta e’tibor talab etiladi. Birgina tovush o‘zgarishi butun bir so‘z ma’nosini o‘zgartirib yuboradi. Bu esa matn mazmuniga ta’sir etmay qolmaydi. Antonimlarda ham to‘g‘ri juftini tanlay bilish talab etiladi. Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan Hamid Olimjonning ijodida bu talablarning barchasiga rioya qilinganligini, ularning o‘z o‘rnida ishlatilganligini va shu bilan bir qatorda keng foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Azimov S. Hamid Olimjon abadiyati. – Toshkent, 1967; Sen elimning yuragida yashaysan [H.Olimjon haqida xotiralar], –Toshkent, 1973.
2. Hamid Olimjon. Tanlangan asarlari. –Toshkent, 1954. – 390 b.
3. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. - Toshkent: Sharq, 1998. – 160 b.
4. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. - Toshkent: “O'qituvchi”, 1995.
5. Mamajonov S. Shoir dunyosi. –Toshkent, 1974.
6. Qo‘ng‘urov P. O‘zbek tilining tasviriy vositalari. –Toshkent, 1977.